



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti




№7(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 66 sahifa,  
13-iyul, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

|                                                                                                                                            |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash .....                                                              | 10 |
| <a href="#">Saydaliyeva Xojiya Abdujalil qizi</a>                                                                                          |    |
| Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda<br>qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari ..... | 14 |
| <a href="#">Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abdujalil qizi</a>                                                         |    |
| Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....                               | 19 |
| <a href="#">Dadonova Aziza Tulkunovna</a>                                                                                                  |    |
| Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili.....                                          | 23 |
| <a href="#">Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</a>                                                         |    |
| Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi .....                                                                                 | 30 |
| <a href="#">Tuksanova Zilola Izatulloevna</a>                                                                                              |    |
| Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili .....                                                   | 35 |
| <a href="#">Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</a>                                                         |    |
| Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va<br>uni amaliyotga joriy etish metodikasi .....    | 41 |
| <a href="#">Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</a>                                                                                          |    |
| Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish .....                                     | 47 |
| <a href="#">Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</a>                                                                                        |    |
| Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli .....                                                                    | 50 |
| <a href="#">Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</a>                                                                                           |    |
| Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari .....                                      | 54 |
| <a href="#">Qobilov Voxidjon Zoxidovich</a>                                                                                                |    |
| Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку.....                                                              | 58 |
| <a href="#">Мухамеджанова Римма Рашидовна</a>                                                                                              |    |



# KASBIY TA'LIM MUASSASALARIDA STRATEGIK BOSHQARUVNI JORIY ETISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI

Qobilov Voxidjon Zoxidovich

Qo'qon davlat universiteti tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0004-5870-7188

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari, institutsional rivojlanish ehtiyojlari, mehnat bozori talablariga moslashuv mexanizmlari hamda ta'lim sifati, raqamli transformatsiya va ijtimoiy hamkorlik bilan bog'liq boshqaruv omillari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda strategik boshqaruv oddiy ma'muriy rejalashtirish emas, balki kasbiy ta'lim muassasasining uzoq muddatli rivojlanish maqsadlarini belgilash, ichki resurslarni safarbar qilish, tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashish, ish beruvchilar bilan barqaror hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda ta'lim natijalarini monitoring qilishga qaratilgan tizimli faoliyat sifatida izohlanadi. Maqolada strategik tahlil, tizimli yondashuv, komparativ tahlil, SWOT tahlili, institutsional va kompetensiyaviy yondashuvlardan foydalanilib, kasbiy ta'lim boshqaruvida natijadorlik, shaffoflik, moslashuvchanlik va innovatsionlikni ta'minlaydigan metodologik model asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** kasbiy ta'lim, strategik boshqaruv, metodologik yondashuv, ta'lim sifati, mehnat bozori, kompetensiya, institutsional rivojlanish, monitoring, innovatsion boshqaruv.

**Abstract:** The article examines the theoretical and methodological foundations of implementing strategic management in vocational education institutions. It analyzes institutional development needs, labor market responsiveness, quality assurance, digital transformation, and social partnership as key determinants of modern vocational education governance. Strategic management is interpreted not merely as administrative planning but as a systemic process of defining long-term goals, mobilizing internal resources, adapting to external changes, establishing sustainable cooperation with employers, and monitoring educational outcomes. The study applies systemic, comparative, institutional, competence-based, and SWOT approaches in order to substantiate a methodological model that ensures effectiveness, transparency, flexibility, and innovation-oriented governance in vocational education.

**Key words:** vocational education, strategic management, methodological approach, quality of education, labor market, competence, institutional development, monitoring, innovative governance.

**Аннотация:** В статье рассматриваются теоретико-методологические основы внедрения стратегического управления в учреждениях профессионального образования, раскрываются институциональные, социально-экономические и педагогические предпосылки модернизации управленческой деятельности. Стратегическое управление интерпретируется как целостная система прогнозирования, планирования, ресурсного обеспечения, мониторинга и корректировки развития профессионального образовательного учреждения с учетом требований рынка труда, цифровой трансформации, партнерства с работодателями и качества подготовки специалистов. В исследовании применены системный, сравнительно-аналитический, институциональный, компетентностный и SWOT-подходы, что позволило определить методологические основания формирования гибкой, результативной и инновационно ориентированной модели управления профессиональным образованием.

**Ключевые слова:** профессиональное образование, стратегическое управление, методологический подход, качество образования, рынок труда, компетенции, институциональное развитие, мониторинг, инновационное управление.

## KIRISH

Bugungi globallashuv, raqamli transformatsiya va mehnat bozorining keskin o'zgaruvchan talablari sharoitida kasbiy ta'lim muassasalarining boshqaruv faoliyati an'anaviy ma'muriy nazorat doirasidan chiqib, istiqbolli rivojlanishni oldindan ko'ra oladigan, resurslarni samarali taqsimlaydigan, ta'lim jarayonini ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan uyg'unlashtiradigan va yakuniy natijani kompetensiyalar orqali baholaydigan strategik



boshqaruv tizimiga tayanishi zarur <sup>[1]</sup>. Chunki kasbiy ta'limning asosiy vazifasi faqat o'quvchilarni ma'lum bir kasbga o'rgatish bilan cheklanmaydi; u iqtisodiyotning real sektoriga mos, texnologik yangiliklarni qabul qila oladigan, mustaqil qaror qabul qiluvchi, jamoada ishlashga tayyor va doimiy kasbiy o'sishga intiluvchi mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan.

Shu ma'noda strategik boshqaruv kasbiy ta'lim muassasasi uchun tashkiliy-funksional zarurat, pedagogik sifatni oshirish mexanizmi va ijtimoiy-iqtisodiy raqobatbardoshlikni ta'minlovchi metodologik poydevor vazifasini bajaradi <sup>[2]</sup>. Kasbiy ta'lim muassasasida strategik boshqaruvni joriy etish, avvalo, muassasaning missiyasi, qadriyatlari, rivojlanish konsepsiyasi va istiqbolli maqsadlarini aniqlashdan boshlanadi. Bunda missiya umumiy shior emas, balki ta'lim oluvchi, pedagog, ish beruvchi, hududiy iqtisodiyot va jamiyat manfaatlarini birlashtiruvchi normativ-metodologik mezon sifatida qaraladi.

Strategik boshqaruv konsepsiyasida muassasa o'zining mavjud salohiyatini, moddiy-texnik bazasini, pedagogik kadrlar tarkibini, o'quv dasturlarining amaliyotga yaqinligini, ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik darajasini, raqamli infratuzilma imkoniyatlarini va bitiruvchilarning bandlik ko'rsatkichlarini muntazam tahlil qilishi lozim. Bunday tahlil boshqaruv qarorlarining subyektiv xohishlarga emas, dalillarga, indikatorlarga va prognoz natijalariga asoslanishini ta'minlaydi <sup>[3]</sup>.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, kasbiy ta'lim tizimi mamlakatning innovatsion iqtisodiyotga o'tishi, sanoat tarmoqlarini malakali kadrlar bilan ta'minlashi, xizmat ko'rsatish sohasida zamonaviy kasblarni rivojlantirishi hamda yoshlarning mehnat bozoriga muvaffaqiyatli kirib borishini ta'minlashi bilan bevosita bog'liq. Agar kasbiy ta'lim muassasalarida boshqaruv qisqa muddatli topshiriqlar, hisobotlar va formal rejalar bilan cheklanib qolsa, ta'lim mazmuni tez eskiradi, o'quv-laboratoriya bazasi ishlab chiqarish standartlaridan ortda qoladi, pedagoglarning metodik kompetensiyasi yangilanmaydi va bitiruvchilarning kasbiy moslashuvi sustlashadi. Strategik boshqaruv esa ushbu xavflarni oldindan ko'rish, resurslarni ustuvor yo'nalishlarga jamlash, tashqi hamkorlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yish hamda sifatni doimiy takomillashtirish imkonini beradi <sup>[4]</sup>.

Nazariy jihatdan strategik boshqaruv menejment, pedagogika, sotsiologiya, iqtisodiyot va psixologiya fanlari kesishmasida shakllanadigan integrativ ilmiy yo'nalishdir. U maqsadli rejalashtirish, tashkiliy madaniyat, yetakchilik, inson kapitali, resurslarga asoslangan yondashuv, institutsional muhit va kompetensiyaviy natijalar kabi tushunchalarni o'zaro bog'laydi. Kasbiy ta'lim muassasasi sharoitida bu yondashuv pedagogik jarayonning barcha tarkibiy qismlarini – o'quv rejaları, fan dasturlari, amaliyot, dual ta'lim, ishlab chiqarish bilan hamkorlik, kadrlar malakasini oshirish, ichki sifat nazorati, raqamli monitoring va bitiruvchilar trayektoriyasini yagona strategik konturga birlashtiradi. Shu bois strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslarini o'rganish kasbiy ta'lim samaradorligini oshirishning muhim ilmiy sharti hisoblanadi <sup>[5]</sup>.

Metodologik nuqtai nazardan kasbiy ta'limda strategik boshqaruv tizimli, jarayonli, natijaviy, kompetensiyaviy, klasterli va hamkorlikka asoslangan yondashuvlar uyg'unligida qurilishi lozim. Tizimli yondashuv muassasani alohida bo'limlar yig'indisi emas, balki o'zaro bog'langan pedagogik, iqtisodiy, tashkiliy va ijtimoiy jarayonlar majmui sifatida ko'radi. Jarayonli yondashuv boshqaruv faoliyatini rejalashtirish, amalga oshirish, monitoring qilish va takomillashtirish bosqichlarining uzluksiz aylanishi sifatida talqin etadi. Natijaviy yondashuv esa har bir strategik qaror yakunida o'lchanadigan sifat indikatorlari, kompetensiya darajalari, bandlik, ish beruvchilar qoniqishi, o'quvchilarning amaliy ko'nikmalari va pedagogik innovatsiyalar bilan baholanishi kerakligini ko'rsatadi <sup>[6]</sup>.

Xalqaro tajriba ham kasbiy ta'lim tizimida strategik boshqaruvning ahamiyatini tasdiqlaydi. UNESCO tomonidan texnik va kasbiy ta'limni transformatsiya qilish strategiyasida kasbiy ta'limning barqaror rivojlanish, adolatli o'tishlar, raqamli kompetensiyalar va yashil iqtisodiyot bilan bog'liqligi ta'kidlanadi. OECD tadqiqotlarida esa malakalar tizimi boshqaruvi samarali bo'lishi uchun davlat, ta'lim muassasalari, ish beruvchilar va hududiy hamkorlar o'rtasidagi muvofiqlashtirish kuchli bo'lishi zarurligi qayd etiladi.

Ushbu yondashuvlar kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni faqat ichki rejalashtirish vositasi emas, balki tashqi iqtisodiy va ijtimoiy tizimlar bilan o'zaro ta'sir mexanizmi sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etish masalasi ta'lim islohotlarining amaliy samaradorligi bilan bevosita bog'liq. Hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi, yoshlar bandligi, yangi kasblarning paydo bo'lishi, raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish va ishlab chiqarish korxonalarining malakali mutaxassislarga ehtiyoji kasbiy ta'lim boshqaruvini yangicha ilmiy asosda tashkil etishni talab qiladi. Bunda har bir muassasa o'zining ichki salohiyatini baholabgina qolmay, hududiy mehnat bozorida talabni o'rganishi, ish beruvchilar bilan hamkorlik shartnomalarini mazmunan boyitishi, o'quv jarayonining amaliyotga yo'naltirilganligini kuchaytirishi va bitiruvchilarning kasbiy muvaffaqiyati bo'yicha monitoring tizimini yaratishi zarur <sup>[7]</sup>.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni ilmiy tahlil qilishda milliy tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega, chunki ular O'zbekiston ta'lim tizimining institutsional sharoiti, boshqaruv madaniyati va islohotlar dinamikasini bevosita aks ettiradi. Shu jihatdan X.O. Umarovanning ta'lim tizimini strategik boshqarishning nazariy asoslari va boshqaruv jarayonlariga oid qarashlari mavzu uchun muhim metodologik tayanch bo'la oladi. Umarova strategik boshqaruvni ta'lim tizimining istiqbolli rivojlanishini belgilovchi, maqsad va resurslarni muvofiqlashtiruvchi, tashqi muhitdagi o'zgarishlarga javob beruvchi hamda natijadorlikka yo'naltirilgan boshqaruv mexanizmi sifatida talqin etadi. Uning yondashuvida ta'lim muassasasining rivojlanishi faqat reja va buyruqlar bilan emas, balki tizimli tahlil, monitoring, strategik qarorlar, rahbarlik kompetensiyasi va innovatsion pedagogik muhit bilan bog'lanadi. Bu fikr kasbiy ta'lim muassasalariga tatbiq etilganda, strategik boshqaruvning asosiy vazifasi o'quv jarayonini ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish, o'quvchilar kompetensiyalarini mehnat bozori talablariga moslashtirish va muassasaning institutsional raqobatbardoshligini oshirishdan iborat ekanini ko'rsatadi <sup>[8]</sup>.

X.O. Umarovanning oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruv tizimining o'ziga xos xususiyatlari va natijalariga doir ilmiy qarashlari kasbiy ta'limga ham metodologik jihatdan mos tushadi. Chunki oliy ta'lim va kasbiy ta'lim muassasalari boshqaruvida umumiy jihatlar – strategik rejalashtirish, sifat kafolati, kadrlar salohiyati, raqamli monitoring, tashqi hamkorlik va institutsional rivojlanish indikatorlari mavjud. Biroq kasbiy ta'limda bu omillar yanada amaliy va ishlab chiqarishga yaqin shaklda namoyon bo'ladi. Masalan, strategik maqsadlar bitiruvchilarning bandligi, amaliy ko'nikmalar sifati, korxonalar bilan dual ta'lim mexanizmi, kasb standartlari va hududiy iqtisodiy ehtiyojlar bilan bevosita o'lchanadi. Shu bois Umarova tomonidan asoslangan strategik boshqaruvning tizimlilik, natijadorlik va moslashuvchanlik tamoyillari kasbiy ta'lim muassasalarida metodologik karkas sifatida qabul qilinishi mumkin <sup>[9]</sup>.

Mavzuga yaqin ikkinchi muhim milliy ilmiy yondashuv A. Erkinning O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarini boshqarishda strategik menejment amaliyotlarini qo'llash istiqbollari haqidagi tadqiqotlarida ko'rinadi. A. Erkin strategik boshqaruvni muassasaning ichki salohiyati va tashqi raqobat muhitini uyg'un tahlil qilish, maqsadlarni resurslar bilan bog'lash, boshqaruv qarorlarini uzoq muddatli rivojlanish indikatorlari asosida shakllantirish jarayoni sifatida izohlaydi. Uning qarashlarida strategik boshqaruvning asosiy kuchi rahbarlikning reaktiv emas, proaktiv xususiyatga ega bo'lishida, ya'ni muassasa muammolarni faqat yuzaga kelgandan keyin bartaraf etmasdan, ularni oldindan prognoz qilishi va profilaktik boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqishida namoyon bo'ladi. Kasbiy ta'lim kontekstida bu yondashuv o'quv dasturlarining eskirishini, mehnat bozoridagi kasb talablari o'zgarishini, pedagoglar malakasining yetarli emasligini va moddiy-texnik bazadagi nomutanosibliklarni oldindan aniqlashga xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslarini ochib berish uchun bir-birini to'ldiruvchi ilmiy metodlar majmuasidan foydalanildi. Avvalo, tizimli tahlil metodi qo'llanilib, kasbiy ta'lim muassasasi pedagogik, tashkiliy, iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy komponentlardan iborat murakkab ochiq tizim sifatida o'rganildi. Bu metod yordamida strategik boshqaruvning alohida elementlari – missiya, strategik maqsad, resurslar, pedagogik salohiyat, hamkorlik, monitoring va natijalar – yagona boshqaruv zanjiri sifatida talqin qilindi. Tizimli yondashuv maqolada kasbiy ta'lim muassasasidagi boshqaruv qarorlarining o'quv jarayoni, amaliyot, ish beruvchilar bilan aloqalar va bitiruvchilar bandligiga qanday ta'sir qilishini aniqlash imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etish bir martalik tashkiliy tadbir emas, balki uzluksiz, bosqichma-bosqich va indikatorlarga asoslangan boshqaruv jarayoni ekanini ko'rsatdi. Birinchi natija sifatida strategik boshqaruvning kasbiy ta'lim uchun mazmuniy modeli aniqlashtirildi. Ushbu modelda strategik boshqaruv muassasa missiyasini belgilash, tashqi va ichki muhitni tahlil qilish, ustuvor maqsadlarni aniqlash, resurslarni taqsimlash, amaliy hamkorlikni kuchaytirish, ta'lim jarayonini kompetensiyaviy natijalarga yo'naltirish, monitoring qilish va takomillashtirish bosqichlaridan iborat yaxlit tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bu yondashuv kasbiy ta'lim muassasasida strategiya faqat hujjat bo'lib qolmasdan, kundalik boshqaruv amaliyotini tartibga soluvchi mexanizmga aylanishi kerakligini asoslaydi.

Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etish masalasi xalqaro ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Bu borada John M. Bryson va Henry Mintzberg qarashlari o'rtasidagi nazariy polemika maqola mavzusi uchun ayniqsa muhimdir. Bryson strategik rejalashtirishni jamoat va notijorat tashkilotlari, jumladan, ta'lim muassasalari uchun maqsadlarni aniqlash, manfaatdor tomonlarni jalb qilish, ichki va tashqi muhitni tahlil qilish hamda institutsional natijadorlikni oshirishga xizmat qiluvchi zarur boshqaruv texnologiyasi sifatida



ko'radi. Uning fikricha, murakkab ijtimoiy muhitda faoliyat yuritadigan tashkilot o'z missiyasini aniqlamasdan, ustuvor vazifalarni belgilamasdan va resurslarni strategik maqsadlar bilan bog'lamasdan barqaror rivojlana olmaydi.

Kasbiy ta'lim muassasasi nuqtai nazaridan Brysonning yondashuvi juda muhim, chunki bunday muassasa bir vaqtning o'zida o'quvchilar, ota-onalar, pedagoglar, ish beruvchilar, mahalliy hokimiyat va iqtisodiyot tarmoqlari manfaatlarini bilan ishlaydi. Mintzberg esa strategik rejalashtirishga nisbatan tanqidiyroq yondashadi. Uning mashhur pozitsiyasiga ko'ra, strategik rejalashtirish strategik tafakkurning o'rnini bosa olmaydi; rejalashtirish ko'proq tahlilga, strategiya esa sintez, ijodiy idrok va vaziyatni chuqur anglashga tayanadi.

Mintzbergning tanqidi kasbiy ta'lim muassasalari uchun ogohlantiruvchi ilmiy ahamiyatga ega: agar strategik boshqaruv faqat jadvallar, hisobotlar, maqsadlar ro'yxati va formal indikatorlardan iborat bo'lib qolsa, u real o'zgarish yaratmaydi. Strategiya tirik pedagogik jarayon bilan bog'lanishi, rahbarlar va pedagoglar tomonidan tushunilishi, ish beruvchilar ehtiyojlari bilan sinovdan o'tishi va muassasa madaniyatiga singishi kerak. Aks holda, strategik reja tashkiliy byurokratiyaning navbatdagi hujjatiga aylanadi <sup>[10]</sup>.

Bryson va Mintzberg o'rtasidagi ushbu bahsni kasbiy ta'lim muassasalari nuqtai nazaridan sintez qilish mumkin. Bryson ta'lim muassasasiga tizimli strategik rejalashtirish zarurligini asoslab bersa, Mintzberg strategiyani haddan tashqari formal rejalariga qamab qo'ymaslik kerakligini eslatadi.

Demak, kasbiy ta'limda strategik boshqaruv ikki tomonlama tabiatga ega bo'lishi lozim: bir tomondan, u aniq maqsadlar, resurslar, muddatlar, mas'ullar va indikatorlarga ega bo'lishi kerak; ikkinchi tomondan, u ijodiy, moslashuvchan, vaziyatga sezgir va pedagogik jamoaning strategik tafakkuriga tayangan holda amalga oshirishi zarur. Aynan shu sintez kasbiy ta'lim muassasasining rivojlanish strategiyasini qog'ozdagi reja emas, balki amaliy boshqaruv madaniyatiga aylantiradi.

## XULOSA

Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, mazkur jarayon zamonaviy ta'lim menejmentining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Strategik boshqaruv kasbiy ta'lim muassasasining uzoq muddatli rivojlanish maqsadlarini aniqlash, resurslarni oqilona taqsimlash, o'quv jarayonini mehnat bozori talablariga moslashtirish, pedagogik kadrlar salohiyatini oshirish, ish beruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish va ta'lim natijalarini indikatorlar asosida baholash imkonini beradi. Shu sababli u oddiy boshqaruv usuli emas, balki muassasa rivojlanishining konseptual, tashkiliy va metodologik poydevori sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, strategik boshqaruvning kasbiy ta'limdagi muvaffaqiyati tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yo'naltirilganlik, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish, ijtimoiy hamkorlik va uzluksiz monitoring tamoyillariga bog'liq. Bu tamoyillar bajarilganda ta'lim muassasasi tashqi muhitdagi o'zgarishlarga tez moslashadi, o'quv dasturlarini zamonaviy kasb talablari asosida yangilaydi, amaliy ta'lim sifatini oshiradi va bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Strategik boshqaruvni joriy etishda rahbarning yetakchilik kompetensiyasi, pedagogik jamoaning ishtiroki, ish beruvchilar bilan mazmunli hamkorlik va raqamli monitoring tizimi hal qiluvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Umarova X. Oliy ta'lim muassasasida strategik boshqaruv tizimini takomillashtirishning zamonaviy tendensiyalari // Green Economy and Development. – T. 2. – № 3. – C. 664025.
2. Abdullayev S. Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv tizimini takomillashtirishning ilmiy-metodologik asoslari // World Conference on Agricultural and Earth Sciences. – 2026. – T. 1. – № 1. – C. 8-11.
3. Qudratova G. M. Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligiga ta'sir qiluvchi omillar // Yangi renessansda ilm-fan taraqqiyoti. – 2025. – T. 1. – № 1. – C. 254-257.
4. Abdunazarova N. F., Omirzaxovna Y. M. Ta'lim muassasasida kadrlar boshqaruvining mohiyati va tamoyillari // Interdiscipline Innovation and Scientific Research Conference. – 2026. – T. 4. – № 39. – C. 150-155.
5. Nasrullayev T. Rahbar kadrlarning strategik boshqaruv kompetentligini takomillashtirishda sun'iy intellektdan foydalanish // ACTA NUUZ. – 2025. – T. 1. – № 1.1. – C. 144-146.
6. Xaydarqulova B. Ta'lim xizmatlarini moliyalashtirishda raqamli boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish // Scientific Practical Conference. – 2025. – T. 1. – № 1. – C. 89-92.
7. Kengboyeva M. Oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini boshqarish yo'nalishlari // Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2025. – T. 5. – № 11. – C. 128-133.
8. Mirzabayeva G. S., Saidahmedovna G. M. Umumta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish va baholash mexanizmlari // Образование и наука в XXI веке. – 2025. – № 66-1 (том 2).
9. Saloxitdinov S. Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholashning zamonaviy konsepsiyalari va innovatsion mexanizmlari: milliy va xalqaro tajribani taqqoslamali tahlil qilish asosida takomillashtirish yo'nalishlari // Academic Literature. – 2025. – T. 1. – № 1. – C. 1-128.
10. Ismoilova F. Ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishning ahamiyati va tamoyillari // Scientific Practical Conference. – 2025. – T. 1. – № 1. – C. 220-225.



- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №7(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.